

TA'LM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA VA OTM LARDA ILMIY-TADQIQOT ISHLARINING AHAMIYATI, ASOSLARI VA VAZIFALARI

Shodmonov Xomidjon Mirzaaxmadovich

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya. *Pedagogikada, ta'limda ilmiy-tadqiqotlarning ahamiyati, uni olib borish bosqichlari va metodlari, shuningdek OTM larda ilmiy-tadqiqotlar faoliyatining vazifalari xaqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *didaktik faoliyat, gipoteza, ilmiy-pedagogik izlanishlar, so'rovnoma-anketa, eksperiment, tadqiqot predmeti, texnologik yondashuv, professional, individual faoliyat, tadqiqotlar bozori, tadqiqotchilik ko'nikmalari.*

Abstract. *The article presents information on the importance of scientific research in pedagogy and education, the stages and methods of its implementation, as well as the tasks of scientific research in higher education institutions.*

Keywords: *didactic activity, hypothesis, scientific and pedagogical research, questionnaire, experiment, research subject, technological approach, professional, individual activity, research market, research skills*

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekistonnig o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" asarlarida umuminsoniy dadriyatlariga qaytish xaqidagi mulohazalarida ta'limni faollikka asoslangan tamoyillarda olib borish, o'sib kelayotgan yosh avlodni yangiliklarni tez qabul qilishga undash, istiqlol yaratgan keng imkoniyatlardan foydalanib xo'jalik va madaniyatning hamma sohalarida yuksak natijalarga erishish haqida gap boradi. Bu yangicha dunyoqarash xalq ta'limida ilgari surilgan uzluksiz ta'lim va shaxs xislatlarini ijodkorlik ta'limi orqali rivojlantirishda ta'lim nazariyasi oldiga yangi vazifalarni qo'yadi.

Xalq ta'limi tizimini tubdan o'zgartirish, uning rivoji uchun pedagogik, uslubiy, psixologik sharoitlarni yaratish talab etiladi. Amaliyotdan shu narsa aniq ravshanki, har qanday ilmiy xulosa tajriba va ilmiy-tadqiqotlarga asoslanadi.

Pedagogikada, xususan ta'lim va tarbiyada ilmiy-tadqiqotlar hech qachon to'xtamaydi va uzluksiz davom etaveradi. Pedagogik tadqiqotlar fani sifatida maktab va boshqa o'quv yurtlarining faoliyati, uning maqsadi, dasturiy ma'nosi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati, tashkiliy shakl hamda ijtimoiy sharoitlar uchun xizmat qiladi.

Pedagogik tadqiqotlarning asoslaridan biri - bu didaktik faoliyat bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchilarning xatti-harakatlaridan iborat. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyoqarashini, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Tahsil natijasida o'quvchi shaxsining turli xislatlari shakllantiriladi.

Bunday o'zgarishlarni kuzatish, hisobga olish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotlarning asosiy vazifasidir.

Yuqoridagi o'zgarishlar, o'qituvchining didaktik faoliyati ta'siridagi va o'z shaxsiy xatti-harakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni tahlil qilishga imkon beradi. O'quvchilar va o'qituvchilarning o'quv ishlari, sharoitlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, metod va vositalari orasidagi bog'liklar tabiat qonuniyatlari qanday ob'yektiv xarakterga ega bo'lsa, shunday ob'yektiv xarakterga egadir.

Ta'lim va tarbiyaga taalluqli xatti-harakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktikada yagona usul hisoblanishini Yan Arnos Komenskiyning "Buyuk didaktika" va K.D.Ushinskiyning "Inson tarbiya fani sifatida" asarlarida ko'rish mumkin. O'quv-tarbiya jarayoni haqida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan empirik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

Ta'lim texnologiyalarining asosiy negizi va ilmiy asoslari. Ta'lim texnologiyalari masalalari va muammolarini o'rganayotgan pedagog, ilmiy-tadqiqotchi, amaliyotchilarning fikricha, ta'lim texnologiyalari - bu albatta hozirgi zamon axborot texnologiyalari bilan bo'g'liq o'qitish, ta'lim jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan texnik vositalar, kompyuter, masofaviy o'qitishdan foydalanish, deb belgilanadi.

Ta'lim texnologiyalarining eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsad bo'yicha hamkorlikda kafolatlangan natijaga erishish uchun qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasidir. Bunda, o'qituvchi o'zi bilan talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talaba mustaqil fikrlay olsa, ijodiy ishlay olsa, izlansa, tahlil eta olsa, o'zi xulosa qila olsa, o'ziga, guruhga, guruh esa unga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, anashular, o'qitish jarayonining **ilmiy asoslari** hisoblanadi.

Har bir dars, mavzu va o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonida o'qitish texnologiyasi - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija olishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ta'lim texnologiyasi tizim sifatida ko'riladigan bo'lsa, uning tuzilmasi tashkiliy funksional elementlar to'plami, yoki yig'indisi sifatida tasavvur etish mumkin.

Texnologik ta'lim va kasb tanlashga yo'llash muammolariga qaratilgan **ilmiy tadqiqotlar o'tkazishdan maqsad** ta'lim va tarbiya xususiyatlarini, samarali metodlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash, texnika vositalarini qo'llashga doir masalalarni yechishdan iboratdir.

Ilmiy-pedagogik izlanishlar (tadqiqotlar) jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1.O'qituvchining adabiyotlarni o'rganishi va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

2. Gipoteza qurish, o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. O'qituvchining faktlar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchga asoslangan taklifni berishi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayoniga qo'llashi.

Texnologik ta'limni o'qitish metodikasi va kasb tanlashga yo'llashda ilmiy izlanishlarning umumilmiy hamda maxsus metodlari qo'llaniladi. Umumilmiy metodlarga: nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

Ta'lim texnologiyalari nazariy fan sifatida ta'lim-tarbiya sohasida kafolatli natijaga erishish darajasini oshirish muammolarini taqbiq etish bilan shug'ullanadi hamda o'zining muntazam rivojlanishini kadrlar tayyorlash orqali ta'minlab turadi. Muammolarni hal etishda turli-tadqiqot usullaridan foydalanadi va boshqa fanlar bilan bog'liqliklarga ham ega.

Ilmiy tadqiqot ishlari fanni rivojlantirishga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirib o'rganishga va muammolarni hal qilish yo'llarini aniqlashga yordam beradi. Hozirgi kunda ta'lim texnologiyalarida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarining eng samarali metodlari sifatida quyidagi metodlarni hisoblash mumkin:

Nazariy usul - ilmiy adabiyotlar, ommaviy matbuot, internet materiallari, darsliklar, o'quv-metodik ishlanmalar va ko'rsatmalar bilan ishlash, manbalarni o'rganish va nazariy tahlil qilish asosida olib boriladigan pedagogik izlanishdir. Bu usul muammoning qay darajada o'rganilgani qay biri atroflicha ochilganligi, qaysi masalalar yechilmaganligini bilish imkoniyatini beradi.

Kuzatish usuli – bu pedagogik hodisani, jarayonni ma'lum pedagogik maqsad asosida kuzatishdir. Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hizobga olish, maqsadida emas balki ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, mukammallashtirish, samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Suhbat usuli – bu material yig'ish va kuzatish davomida to'plangan axborotlarga aniqlik kiritish, tekshirish maqsadida suhbat olib borishdir. Ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat usulidan foydalaniladi.

Odatda, suhbat usuli o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar jamoasi bilan, ota-onalar va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borganda qo'llaniladi. Bunda suhbat usulini, tadbiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosaga kelinadi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish, savol-javob texnikasini egallanganligi va uni kerakli tomonga yo'naltira olishni bilishi, suhbatdoshning ruhiy holatiga qarab suhbat ohangini moslashtirishi g'oyat muhimdir.

Test va so'rovnomalar usuli - bu usul ommaviy ravishda material to'plash maqsadida anketa tarqatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Pedagogik ilmiy-tadqiqotlar ichida yetakchi usul test va so'rovnoma savollaridan foydalanishdir.

So'rovnoma - anketa usuli yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka va guruhli fikrlarini, qarashlarini, qiziqishlarini, kelajak rejalarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test savollarining sifati, maqsadga muvofiqligi, ishonchliligi va xolisligi ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlarini o'stiradi, kelajakni real baholash qobiliyatini taraqqiy ettiradi.

Ta'lim oluvchilar ijodini o'rganish usuli – bunda, talabalarning o'ziga xos individual faoliyatlari, qobiliyatlarga oid omillar tahlil qilinadi. Pedagogik tadqiqot usullari ichida ta'lim oluvchilar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish usuli mavjud. Bunda ularning o'ziga xos yakka tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi va muayyan xulosalarga kelinadi. Maqsad, ta'lim oluvchilarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirishdir. Shu sababli ularning turli yozma ishlari, o'zlashtirish imkoniyatlari, ijodiy ishlari, yozma hisobotlari, topshiriqlarni bajarishga yondashuvi ularni o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Natijada ta'lim oluvchilardagi qobiliyat, iqtidor va talantlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlarini namoyon bo'lishi uchun reja va sharoitlar yaratish imkoni paydo bo'ladi.

Eksperiment-tajriba usuli - qo'llanilayotgan yoki qo'llanishi mumkin bo'lgan u yoki bu metod va usullar samarasini aniqlash maqsadida pedagogik eksperiment amalga oshiriladi. "Eksperiment" so'zi lotincha "sinab ko'rish", "tajriba qilib ko'rish" ma'nosini anglatadi. Eksperimental tajriba ishlari asosan ta'lim - tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Tajriba ishlari ta'lim-tarbiya o'rtaqidagi qonuniy bog'langan ishlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tajriba ishlari ta'lim-tarbiya o'rtaqidagi qonuniy bog'lanishlarni aniqlash, natijalarni hisoblash asosida yangi usullarni tatbiq etishga, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratiladi.

OTM larda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning vazifalari va maqsadi. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagilar eng ustivor vazifalar qilib belgilangan:

- ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini ta'lim jarayoni va ilmiy rahbarlikka jalb qilish, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarni mazkur ilmiy-tadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta'minlash;
- jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendentsiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta'lim muassasasida (fakultet, kafedra va laboratoriyalar kesimida) ilmiy tadqiqotlarni tor va fanlar tutashligidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish;
- qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni belgilash, ushbu yo'nalishlarda yuqori malakali professor-o'qituvchilar va talabalar salmog'ini oshirish.

Ta'lim va bilim faoliyatining maqsadi:

- oliy professional ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning hozirgi holati, ko'lamini kengaytirish va talabalarning bilim, konikma va qobiliyatini oshirish uchun ta'lim jarayonini takomillashtirishlarni;

- ta'lim oluvchini professional malakasini oshirish uchun zarur bo'lgan ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalarini o'zlashtirishdan iborat.

Albatta, ilmiy nazariyani ishlab chiqaruvchi mutaxassis, tajriba ishi yoki boshqa tadqiqotchilar tajribasi sharoitida o'z faoliyati jarayoni va natijalarini tahlil qiluvchi talaba tomonidan tadqiqot olib borishning yondashuvlari va uslublarida alohida xususiyat mavjud. Ammo erishilgan natijalarning ahamiyatini tahlil qilish va asoslash tajribali olim va universitet bitiruvchisi uchun ham natijalarni xolisona baholash birdek muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, talabalar bilan loyiha va tadqiqot faoliyatini tashkil etish, bo'lajak pedagoglarning fikricha, tadqiqot materialini o'rganish va bilish mantiqini egallashgina emas, balki talabalar bilan o'zaro ijodiy hamkorlik jarayonida do'stona yondashishga ham xizmat qilishi kerak.

Xulosa qilob aytganda, pedagogikada, xususan ta'lim texnologiyalarida samarali metodlardan foydalangan holda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, tadqiqot natijalarini amalda qo'llash, shuningdek OTM larda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va unga talabalarni kengroq jalb qilish, ta'limda xozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu o'z navbatida, ilmiy bilimlar va ko'nikmalarga ega, yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y.
2. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusi. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/17/renaissance/>.
3. Zokirov I. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish - ning nazariy-amaliy asoslari. Ped.fan.nom. dissertatsiya. Toshkent. 2005. 131b.
4. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. Toshkent: OO'MTV, 2007. 173 b.
5. Texnologiya ta'limini rivojlantirish strategiyalari moduli bo'yich O'quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2021.